



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2022-yil. 9-son.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinsbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.28.09. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garniturasida. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 2800 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

Bahodir JOVLIYEV. O'zbekistonda ta'lim islohoti nega birinchi o'ringa qo'yildi?.....	3
Saodat KAMBAROVA. Loyihalashtirish - tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish omili sifatida.....	8
Xalida GULYAMOVA, Hilola BAKIYEVA. Tilshunoslik sathlarini integrativ yondashuv asosida o'qitish.....	10
Dilafuz KHAMRAEVA. Russian language teaching methodology and methods.....	13
Hulkar MUSTAFOQULOVA. Chet tillarni o'qitishda masofaviy ta'limni joriy etish texnologiyalari.....	15
Umud HAMROYEV. Sifat va uning ma'noviy guruhlarini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	16
Elmira MOYDINOVA. O'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini veb-resurslar asosida shakllantirish.....	18
Samgin QURBONOV. Badiiy matndagi o'xshatishlarning lingvopragmatik xususiyatlari haqida.....	20
Shaxlo BOTIROVA. Lirik kompozitsiyada modern she'r tabiati talqini.....	22
Bobonazar MURTAZOYEV. Farruxiy ijodi va Chag'oniyon adabiy muhiti.....	24
Qayrat MAMBETALIYEV. Asarda lirik kompozitsiya tadjiri.....	26
Hurriyat XUDOYMURODOVA. Qissalarda uslub va tasvir mahorati, ma'naviy-tarbiyaning badiiy aks etishi.....	29
Kamola AHMEDOVA. Ijtimoiy tarmoqdagi yozishma va sharhlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	31
Matlyuba MIRXANOVA. Internet terminologiyasining rivojlanishi va vazifasi: abbrevatsiya va nominatsiya.....	31
Bayram BILIR. O'rxun bitiklarida i harfi va yopiq e tovushining turkiyalik turkologlar tomonidan qilingan transkripsiyasi.....	34
Maxsuda BERDIMURATOVA. Jadid adabiyotida inson konsepsiyasi.....	35
Xurshida HAMRAKULOVA. Adabiy ta'lim va bolalar adabiyoti.....	36
Go'zal HIMMATOVA. Qo'chqor Norqobil nasrida badiiy til masalasi.....	38
Doston JO'RAMURODOV. Xeyan davri waka janri rivoji.....	39
Feruz NODIROVA. Sa'dulla Hakim she'riyatining yetakchi g'oyalari.....	41
Husanboy RAHMONOV. Omon Matjon she'rlarida assotsiatsiyalarning hosil bo'lish omillari.....	43
Khurshida MURODOVA. Methods and technologies for teaching russian as a foreign language.....	44
Shahnoza RAHMONOVA. Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin" dostonida aruz tizimining o'rni.....	45
Sevara USMANOVA, Muazzam ABDUMALIKOVA. An overview on artistic specificity of the historical genre.....	46
Nilufar SHIRINOVA, Nargiza SHIRINOVA. Gradual relationships in the inner and outer aspects of the uzbek and english language systems.....	48
Rafiqjon ZARIPOV. O'zbekistonda davlat tili menejmentini amalga oshiruvchi organlar faoliyati.....	50
Rayhona TILLAYEVA. Tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishda muammoli o'qitish va lateral metodlardan foydalanish usullari.....	52
Leninza MASHARIPOVA. The importance of films in learning culture.....	54
Gulyshod XAMRAEVA. Сложноподчиненное предложение (СПП). Виды подчинительных союзов.....	55
Рануша АТАЕВА. Занимательная грамматика для студентов нефилологических направлений образования.....	60
Наргиза УСМАНОВА, Гулчехра ДАВЛЯТОВА. Дискурс и риторические возможности языковой личности.....	62
Дилноза НАШИРОВА. Семантические отношения глаголов движения в узбекском языке.....	63
Зухра САЙИБОВА. Лингвopragматические особенности электронной переписки (деловая переписка).....	65
Саодат ИКРОМАЛИЕВА. Характеристика и способы реализации макроконцепта «семья» в русских и узбекских паремиях.....	67
Татьяна ТРИГУЛОВА. Понятие суггестивных технологий в политическом дискурсе.....	69
Анатолий ЛИХОДЗИЕВСКИЙ. «Втиснуть в страницу всё...».....	71
Чарос АБДУЛЛАЕВА. Анализ характерных черт выдвинутых в английских рекламных дискурсах.....	74
Феруза ТАИРОВА. Литературоведение и лингвистика.....	76
Аль-Мария БАБАРАХИМОВА. Жанровое своеобразие памятников русской деловой письменности XVII века.....	79
Дилфуза ЭРГАШЕВА. Концепт «мать» в узбекской и русской паремииологии.....	82
Гузэл ЭГАМБЕРДИЕВА. Использование ТПУЗ в военных вузах.....	86



Saodat KAMBAROVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek
adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

LOYIHALASHTIRISH – TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH OMILI SIFATIDA

Qiziqish va kuzatuvchanlik tadqiqotchilikning ilk niшонasidir. Yuqori sinf o'quvchilari narsa-predmetlar, yon atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning xususiyatlarini anglab yetsalar ham, ularning mohiyati yuzasidan asosli xulosa chiqarishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishlari tabiiy. Mana shunday qarama-qarshilikni bartaraf etish tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yishga zamin yaratadi. Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda *ilmiy tadqiqot* bilan *o'quv tadqiqoti* tushunchalari o'rtasidagi farqni aniqlashtirish maqsadga muvofiq. Bizningcha, ilmiy tadqiqotda obyektiv ilmiy muammoga yechim izlansa, o'quv tadqiqotida subyektiv, ya'ni o'quvchining o'zi yangilik deb bilgan ilmiy muammoning hal etilishi nazarda tutiladi.

Metodist I.Rajabovanning ta'kidlashicha, "o'qitish jarayoniga ilmiy tadqiqotchilik nuqtayi nazaridan yondashish o'quvchilar bilish faoliyatini yo'lga qo'yishning yuqori bosqichi sanaladi" [1]. Fikrimizcha, bilish faoliyati o'quv muammosini qiziqarli tarzda qo'yish va ta'limni hamkorlikda olib borish tamoyiliga uzviy bog'liq bo'lib, bular o'quvchidan individuallik, ijodiylik, faollik va tashabbuskorlikni talab etadigan mustaqil ish shakllarini ham taqozo etadi. Ularni bajarish usullarini o'quvchining o'zi tanlashi, takomillashtirishi, o'z-o'zini nazorat qilishi, baholashi va ma'lum natijalarni qo'lga kiritishi bilan xarakterlanadi.

Yuqori sinflarda o'quvchilarni ilmiy tadqiqotchilikka yo'naltirish bugungi kunda alohida o'rin tutadi. Bu borada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi, xususan, "Boburnoma" asari o'tmish ajdodlarimiz turmush tarzi, intilishlari, e'tiqodi va a'mollarini o'quvchi tasavvurida jonlantirishi, fanning turli sohalari qamrab olishi nuqtayi nazaridan o'quvchilarni izlanishlar olib borishga qiziqtiruvchi muhim manba bo'la oladi [2]. Dasturda o'rganilishi belgilangan bandlar keng qamrovligi sabab ular ichidan aniq bir yo'nalishni tanlash maqsadga muvofiq bo'lib, bu nimani, nima maqsadda va qanday qilib o'rganish masalasiga chuqurroq yondashishni nazarda tutadi. E'tiborlisi shundaki, muallifning Hind o'lkasi geografik o'rni, chegaralari, o'simlik va hayvonot olamini sinchkovlik bilan o'rganishiga doir masala tadqiqot maqsadi, yo'nalishi va mohiyatini rejaga muvofiq izchil bayon etish, yangi g'oyalar, dalillar bilan isbotlash, asosli xulosalar chiqarishda muhim omil sanaladi.

Tadqiqot ishini loyihalashtirish muayyan vaqt ora-

lig'ida Boburning tabiatshunos sifatidagi faoliyatiga doir axborotlar to'plash, izlanishlar olib borish va natijalarini taqdim etish asosida amalga oshiriladi. Loyihalashtirish faoliyati quyidagi bosqichlardan iborat:

I. O'quvchilar uchun uslubiy ko'rsatmalar.

1. Tayyorlov bosqichi:

1.1. *Loyiha mavzusi aniqlanadi, dolzarbligi asoslanadi, hal qilinishi zarur bo'lgan muammo shakllantiriladi.* Tadqiqot mavzusi o'qituvchi tomonidan tavsiya qilinishi yoki o'quvchilar tomonidan tanlanishi mumkin.

Ijodkorning ayrim sohalarga xos ilmiy yondashuvlarini o'rganish tadqiqot mavzusining "Boburnoma"da nabotot olamiga doir qiyosiy qarashlar (Hindiston o'lkasi misolida) tarzida qo'yilishiga asos bo'ladi. Zero, tadqiqotning amaliy ahamiyati va natijalari mavzuning to'g'ri tanlanishidan boshlanadi. O'quvchilarni atrofda voqea-hodisaga, o'simliklar va hayvonot olami sir-sinoatlariga nisbatan sinchkov nazar bilan qarash, tabiatni asrash, bunyodkorlik ruhida tarbiyalash masalasi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Muammoning mavjudligi uning yechimiga doir bilimlarni izlab topishni talab etadi. Shu bois Boburning ziddiyatlarga to'la murakkab hayoti davomida hatto kichik bir detalni ham e'tibordan chetda qoldirmagan nozikta'b va teran nigohli kuzatuvchiligini dalillash tadqiqot muammosini shakllantirishga asos bo'la oladi.

1.2. *Loyiha maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti belgilanadi.* Asardan Boburning o'simlikshunos sifatidagi faoliyatiga doir faktlarni o'rganish tadqiqot ishining maqsadini shakllantiradi. Bu maqsadga erishishda o'quvchilar oldiga "Boburnoma" asarini chuqur o'rganishga doir vazifalar qo'yiladi. Loyiha obyekt sifatida "Boburnoma"dagi nabotot tasviri, xususan, Hindiston o'lkasi o'simliklarining xususiyatlarini o'rganish jarayoni belgilanadi. Muallifning kuzatuvchilik va hikoyachilik mahoratini o'rganish mazmuni, shakl, metod va vositalari loyiha predmetini tashkil etadi.

1.3. *Loyihalashtirish faoliyati turlari, usul va vositalari tanlanadi.* Tadqiqotchilik faoliyati ta'limning izlanish (evristik) va tadqiqot metodlari hamda ular tarkibidagi usullar asosiga quriladi. Qo'yilgan muammo yuzasidan o'quvchilar tomonidan darslik, boshqa o'quv qo'llanmalardan Boburning tabiatshunos sifatidagi faoliyatiga doir materiallar to'planadi, matn bilan ishlashda mumtoz asarlarni o'rganishga doir lug'atlar bilan ishlanadi, fikrlarini asoslashda "Boburnoma"dan ko'chirmalar

olinadi, ishga tanqidiy yondashiladi. Qiyosiy o'rganish asosida xulosalar chiqariladi.

1.4. *Loyiha mavzusiga oid adabiyotlar* ("Boburnoma", "Boburnoma. Miniaturalar") bilan tanishiladi.

2. Tadqiqot jarayonini rejalashtirish bosqichi.

2.1. *Izlanish "maqsad → vazifa → natija" rejasi ketma-ketligida olib boriladi.*

Loyiha bajarilishining ish rejasi qanday bo'lishi kerak? Bunda topshiriqning sodda yoki murakkabligiga ko'ra ma'lum vaqt belgilanadi. O'quvchilar imkoniyatlari doirasida vazifalar taqsimlanadi. Vazifalar quyidagilar-dan iborat:

a) asardan "Vaqoei sanai isno va salosina va tisa'mia" – "To'qqiz yuz o'ttiz ikkinchi (1525-yil) voqealari", ya'ni Boburning Hindistonga yurishlariga doir voqealar aks etgan matn bilan yaqindan tanishish; b) matndan Hind o'lkasi nabotot dunyosining bir-biridan farq qiluvchi jihatlarini belgilash; d) Boburning nabotot olami haqidagi qiyosiy qarashlarini o'rganish va tahlil qilish; e) masalaga tanqidiy ruhda yondashish, o'z fikrlarini asoslash, tizimlashtirish va xulosalash; f) davr va makon tasvirini qiyoslash va h.k.

III. Loyihani bajarish bosqichlari.

3.1. *Mavzuga tegishli zarur ma'lumotlar to'planadi, o'rganiladi, tahlil qilinadi, tizimlashtiriladi va xulosalarga kelinadi.*

Yaxshi ayonki, yosh Bobur yurishlari davomida shahar, qishloq va viloyatlarning tabiat manzaralariga alohida e'tibor bilan qaraydi hamda bir-biridan mutlaqo farqlanuvchi notanish zamin o'simliklari va hayvonot olamining betakrorligini mohir rassomdek jonlantirishga intiladi. Tasvirda qiyoslash usulidan foydalanadi. Zero, qiyoslashga oddiy hol, ya'ni kishining o'zganikini o'ziniki bilan solishtirish, noma'lum jihatlariga oydinlik kiritishga bo'lgan tabiiy ehtiyoji deb qarash mumkin bo'lsa-da, professor Q.Yo'ldoshev bu borada to'g'ri ta'kidlaganidek, "U bir tomondan, muayyan badiiy hodisaning haqiqiy qimmatini belgilab berishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, o'sha hodisaning qanchalik estetik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatishda qo'l keladi" [3]. Ko'rinadiki, mazkur usul asarni bir necha aspektda tekshirish imkonini beradi.

Hindiston tuprog'iga qadam qo'yar ekan, Bobur o'lkadagi birorta ham yaratq va hodisalarni nazardan qochirmaslikka harakat qiladi. O'quvchiga Hind yerining o'ziga xos hayvonot olami haqida boy va qiziqarli ma'lumotlar beradi. Xususan, *gilahriy* nomli sichqonning faqat daraxtlardagina yashashi, daraxtlar ustida balanddan pastga tomon hayratlanarli darajada tez va chaqqonlik bilan yugurishi; *jangaliy* – "*changalzor to'tisi*" yoki *shorak* nomli qushlarning gapirishga o'rgatilishi; ikki qulog'ining to'g'risidan ikkita suyak chiqib turadigan *kakka balig'idan* yoqimli ovoz kelishi, suv yuzida yetti-sakkiz qari yugura oladigan *baqalar* tasviri o'ta maroqli bo'lib, o'quvchida alohida izlanishlarga moyillik uyg'otadi.

Hindiston zaminining nabotot olami turfaligi kitobxon qiziqishini oshirishi tabiiy bo'lib, asar tilining sodda va tushunarligi e'tiborni tortadigan yana bir omildir. O'lka nabotot olami *anba* deb nomlanuvchi meva tasviridan boshlanib, *kayla*, *anbuli*, *mahva* (*gul chikon*), *kirni*, *joman*, *kamrak*, *qadxil*, *badhal*, *biyrt* (*kunor*), *karun*, *panyola*, *gular*, *omila*, *chirunchi*, *xurmo*, *norgil*, *tor* kabi ko'plab manzarali va mevali daraxtlar, ularning xususiyatlari, shuningdek, qo'llanilishiga doir ma'lumotlar keltirilishi bilan davom ettiriladi.

Asarda subtropiklar guruhiga mansub o'simlik va mevalar tasviri o'quvchini Boburning ilmiy fikrlashi, keng mushohadasi va o'ta sinchkovligidan ogoh etadi. Jumladan, *noranj* (*apelsin*), unga o'xshash *limu* (limon) va *turunj* (*sitron*) kabi mevalar ta'riflanadi. O'lkada *limu* mevasining ko'p uchrashini, hajmi tuxumcha kelishini, ildizini zaharlangan kishi qaynatib ichsa, ziyonini daf qilishini ta'kidlaydi. (263-b.). *Turunj* mevasini tavsiflashda uning nomlanishidan boshlab navlari, iste'molga yaroqliligi, ko'rinishi, hatto po'stlog'idan murabbo tayyorlanishigacha sifatlaydi (263-b.). Albatta, voqealar rivojida kitobxonning navbatdagi mevalar xususiyatlariga qiziqishi ortib boradi.

Galdagi qiyoslarida Bobur *galgal limu*, *chanbiryi*, *sadofal*, *amradpal*, *karna*, *amalbed* kabi noranjsimonlarning biologik xususiyatlariga ham alohida to'xtalib o'tadi. Boburning qiyoslashdagi individualligi o'quvchi e'tiborini tortadigan qiziqarli va muhim ma'lumotlarni umumlashmalar tarzida bera olishida ayonlashadi.

Boburning tasvirdagi mahoratiga baho berar ekan, adabiyotshunos olim D.Hoshimova muallifga xos qiyosiy yondashuvlarni "soddadillik bilan qabul qilish emas, uni o'rganish, har qanday fikrni aql tarozisi bilan o'lchab, keyin xulosa chiqarish" [4] zarurligini ta'kidlashi bejiz emas. Zero, "Boburnoma"da keltirilgan tasvirlar muallifning shunchaki ko'rgan-kechirganlari tarzida emas, balki oddiy kitobxonni ham bilimlarni qiyosiy o'rganish orqali ularga xoslikni aniqlash va chegaralay olishga yo'naltirishi nuqtayi nazaridan qimmatlidir.

3.2. *Tadqiqot natijalari belgilangan hajmdagi tayyor ko'rinishga – referat yoki adabiy ma'ruza holiga keltirilib rasmiylashtiriladi.*

IV. Loyiha taqdimotga tayyorlanadi va himoya qilinadi.

4.1. Taqdimot.

4.2. *Loyiha himoyasi.* Tabiatan qiziquvchanligi va sergakligi uyg'unlashib, yurt va yaratuvchanlik ishida yongan Boburning intellektual imkoniyatlari cheksizligini yanada yorqinlashtiradi. Bu esa, o'z navbatida, tadqiqotda belgilangan vazifalarga doir yechimlarni taklif qilish imkonini beradi.

4.3. Baholash.

V. Loyihalash ishi yuzasidan hisobotga tayyor-garlik bo'yicha yo'riqnomasi.

5.1. *Muammoni asoslash.* Izlanish faoliyati mavzuga taalluqli kichik bir detalni ham unutmashlikni, manbalarni

chuqur o'rganib qiyoslashni, tahlilga tortilgan obyekt-dagi har jumlagi e'tibor bilan yondashishni, noma'lum jihatlaridan muayyan yangiliklar topishni va atroficha tadqiq etishni taqozo etadi.

Tasvirlardagi obyektlar bilan bog'liq ma'lumotlar zamirida muallifning nafaqat shaxsiy kuzatishlari, balki qanchadir vaqt mobaynida mahalliy aholining turli qatlamlari yoki har xil kasb egalari bilan bo'lgan suhbatlar, surishtirishlar mujassamligini ham sezish mumkin. Shuningdek, yosh bo'lishiga qaramay Boburning Movarounnahr o'lkasi topografiyasi, ob-havosi, aholisi, xalqning urf-odatlarini, o'simliklar va hayvonot olamini diqqat bilan o'rganganligi, keyinchalik Xuroson, Afg'oniston va Hindistondagi kuzatishlari davomida qiyosiy foydalanishini ta'kidlash joiz. Bugungi kun kitobxonini ham asarni qiynalmasdan o'qiy olishini esa asar tilining jozibadorligi va tushunarligiga bog'lash mumkin. Bu ham ijodkor mahoratining yana bir qirrasidir.

5.2. *Xulosalarni bayon etish.* Aytish mumkinki, "Boburnoma" bugungi kunda ham ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega memuar asardir. Lekin asrlar davomida tabiiy yoki inson omilining ta'siri tufayli joy nomlari, hayvonot va nabotot olamidagi o'zgarishlar ayrim ma'lumotlardagi aniqlikka putur yetkazishi mumkinligini ham unutmaslik joiz. Bu esa masalaga xolis yondashish zarurli-

gini taqozo etadi. Navbatdagi jarayonda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

5.3. *Loyiha maqsadiga erishilganlik, natijalarni izohlash.* 5.4. *Loyiha bo'limlari mazmunini ifodalash.* 5.5. *Vazifalar yechimi va olib borilgan ishlarni ko'rsatish.* 5.6. *Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish, ilovalarni keltirish.*

Demak, har qanday loyiha mavzuga bog'liq bo'lgan holda yagona tartibda tuzilishi va barcha bosqichlarda natija aniq ko'rsatilishi majburiydir. O'quvchi o'z aspekti doirasida predmet, hodisa va tushunchalarni tekshiradi, qiyoslaydi, zarur mezonlarni ishlab chiqishga harakat qiladi.

Xulosa qilganda, o'quvchilarning izlanish faoliyatini yo'lga qo'yish orqali bilim olish jarayonining tadqiqot elementlari bilan uyg'unlashuviga qulay sharoit yaratiladi; o'quvchining ichki pozitsiyasi, o'quv faoliyati motivatsiyasi, o'quv va bilish motivlari to'g'ri shakllanishi ta'minlanadi. Olamni anglashga nisbatan faol munosabatlari tarkib toptiriladi, yangi bilimlarni mavjud intellektual imkoniyatlari darajasida o'zlashtirishga shart-sharoit yaratiladi. Eng muhimi, ilmiy bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni xususida dastlabki ko'nikmalar hosil qilinishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabova I. O'qitish tizimiga tizimli tafakkur va ilmiy tadqiqotchilik nuqtayi nazaridan yondashish // Kasb-hunar ta'limi, 2013, № 1, 28-bet.
2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017, 14 (774)-son, 230-modda, 38-bet.
3. Qozoqboy Yo'ldosh. Qiyoslash – tahlil samaradorligini oshirish usuli // "Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti". Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, 2019, 27-bet.
4. Hoshimova D. Boburning nabotot olami haqidagi qiyosiy qarashlari // Til va adabiyot ta'limi, 2010, № 6, 32-bet.



TILSHUNOSLIK SATHLARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH

Ma'lumki, tilning barcha tomonlari o'zaro bog'liqligi, ko'p qirraliligi va murakkabligi, ularning dialektik birligi, avvalo, uning aloqa vositasidagi vazifasida namoyon bo'ladi. Tilning barcha sathlari o'zaro bog'liqligi tovushsiz so'z va iboralar, so'zsiz gap yuzaga kelmasligi, so'z va iboralar gapning qurilish materialini sifatida xizmat qilishi, gaplarning mazmun jihatdan bog'lanishi biror bir voqelikni o'zida aks ettiruvchi matnini yuzaga keltirishi-

da o'z aksini topadi. Maktabda tilni o'rgatishda o'quvchilarning til sathlari orasida ichki bog'lanishni ongli anglashlariga erishish mazkur bog'liqlikka asoslanadi. Tilning barcha tomonlari (fonetika, leksika, grammatika, so'z yasalishi)ni o'zaro bog'liq holda o'rganish ona tilini o'zlashtirishni ta'minlovchi yetakchi tamoyil sanaladi. Bu tilning murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan